

JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI

Ibragimov Zafar Ismailovich

O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati

Soliq boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Soliqlar paydo bo'lganidan buyon turli mamlakatlarda turlicha ko'rinish kasb etib, har bir mamlakat o'z soliq tizimining har tomonlama mukammal bo'lishiga intiladi. Ammo, shunday bo'lsada bir mamlakat uchun maqbul hisoblangan soliqqa tortish tizimi boshqa bir mamlakatga mutlaqo to'g'ri kelmaydi yoki qo'llashga u yoki bu sabablar to'sqinlik qiladi. Shunday bo'lsada, soliq turlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilganda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, ularni respublikamizda qo'llash mumkin bo'lgan tomonlarini ilmiy asoslagan holda ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borgan tadqiqot ishimiz natijasida bir necha mamlakatlarda aynan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish masalasi o'rganilib, ularni mamlakatimizda qo'llash uchun zaruriyat borligi asoslab berildi.

Xorijiy mamlakatlar jismoniy shaxslar daromad solig'i va undirish mexanizmi turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, umumiy o'xshash jihatlaridan tashqari, alohida o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

Barchamizga ma'lumki, dunyoning ko'plab mamlakatlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mavjud bo'lib, ularning ham ko'pchiligida progressiv soliq stavkasi amal qiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha boy tajribaga ega bo'lgan bir nechta mamlakatlar amaliyotiga e'tibor qaratishni lozim topdik. Bu borada Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) muhim o'rin egallaydi. Shunday ekan AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratamiz.

AQShda daromad solig'i deklaratsiyasida hamma daromad ko'rsatiladi. Jumladan soliqqa tortilmaydigan qismi, ya'ni qilingan xarajatlar ham inobatga olinadi. Ushbu jihatlarini O'zbekiston uchun ham bosqichma-bosqich amalga oshirish ijobiy natijasini beradi. Ushbu holat har qanday daromad manbaiga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning barcha daromadlarini oshkorlashtirilishini ta'minlaydi.

AQShda o'tgan asrning 80-yillarida o'tkazilgan soliq islohotlari jarayonida fuqarolar daromadini soliqqa tortish, jumladan, deklaratsiya mexanizmini qo'llash borasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. 1986-yilga qadar AQShda fuqarolardan daromad solig'i 14 ta stavkada 11 dan 50% gacha miqdorda undirilgan¹. Hozirgi kunda AQShda 10 foizdan 37 foizgacha

¹ Usmanova M.S. "Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. BMA, 2011. 39-b.

oraliqdagi 7 ta progressiv stavkalar qo'llanilgan holda daromad solig'i hisob-kitob qilinadi (1-jadval).

**1-jadval AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining
2023-yil uchun stavkalari² (AQSh dollarida)**

Soliq stavkasi, %	Yolg'iz (uylanmagan yoki oilali bo'lmaganlar)	Oilali birgalikda (oilaviy daromadidan)	Oilali yakka holda (alohida daromatlari bo'yicha)	Oila boshlig'i (boshqa daromad oluvchilar oilada bo'lmaganda)
10%	\$0 – \$11,000	\$0 – \$22,000	\$0 – \$11,000	\$0 – \$15,700
12%	\$11,001 – \$44,725	\$22,001 – \$89,450	\$11,001 – \$44,725	\$15,701 – \$59,850
22%	\$44,726 – \$95,375	\$89,451 – \$190,750	\$44,726 – \$95,375	\$59,851 – \$95,350
24%	\$95,376 – \$182,100	\$190,751 – \$364,200	\$95,376 – \$182,100	\$95,351 – \$182,100
32%	\$182,101 – \$231,250	\$364,201 – \$462,500	\$182,101 – \$231,250	\$182,101 – \$231,250
35%	\$231,251 – \$578,125	\$462,501 – \$693,750	\$231,251 – \$346,875	\$231,251 – \$578,100
37%	\$578,126+	\$693,751+	\$346,876+	\$578,101+

AQShda jismoniy shaxsning 11 000 AQSh dollarigacha bo'lgan barcha daromatlari 10 foizli stavkada soliqqa tortiladi. Masalan jismoniy shaxsning daromadi 12 000 AQSh dollarni tashkil qiladigan bo'lsa avvalo, 11 000 AQSh dollari 10 foizlik stavkada, qolgan 1000 AQSh dollari esa 12 foizlik stavkada soliqqa tortiladi.

Ta'kidlash joizki, AQShda federal daromad solig'i tizimida soliqqa tortilmaydigan minimal daromad miqdori mavjud bo'lib, uning miqdori bir qator omillarga bog'liq, xususan, oilaviy ahvol, yosh va deklaratsiyani to'ldirish usuli (turmush o'rtog'i bilan birgalikda yoki alohida). Masalan, 65 yoshgacha bo'lgan yolg'iz fuqarolar uchun 7000 AQSh dollari, agar er-xotinning ikkalasi ham yosh bo'lsa, 13000 AQSh dollari, agar ulardan biri 65 yoshga to'lgan bo'lsa, 14000 AQSh dollarida soliq solinamaydigan daromad miqdori belgilangan.

Germaniyada har bir kishining daromadi asosiy soliq imtiyozlariga bevosita bog'liq. 2022-yilda, asosiy soliq imtiyozi fuqarolik sherikligida bo'lmagan va turmush qurmagan bo'lsa, 10347 yevroni tashkil etadi. Turmush qurgan yoki fuqarolik sherigi bo'lgan juftliklar uchun imtiyozli summa ikki barobarga ortadi, ya'ni 20694 yevroni tashkil qiladi. Agar soliqqa tortiladigan daromad ushbu miqdordan yuqori bo'lsa, daromad solig'i to'lanadi. Soliq stavkalari 16,5 foizdan 42,0 foizgacha o'zgarib turadi. Soliqqa tortiladigan daromadingiz qanchalik yuqori bo'lsa, soliq stavkasi ham ortib boradi, ya'ni progressiv stavka qo'llaniladi. Shu bilan birga, 42,0 foiz soliqning yuqori darajasi fuqarolik sherigi bo'lmagan va turmush qurmagan bo'lsa, yiliga 277 826 yevrodan ko'proq daromad oladigan shaxslarga nisbatan

² <https://smartasset.com/taxes/current-federal-income-tax-brackets>

to'g'ri keladi. Turmush qurgan juftliklar uchun eng yuqori soliq stavkasi 555 650 yevrodan ortiq daromadlar uchun qo'llaniladi³.

Germaniyada jismoniy shaxslar daromadlari deklaratsiya asosida soliqqa tortish maqsadida quyidagi guruhlariga bo'linadi⁴:

- ✓ «qishloq va o'rmon xo'jaligidan daromadlar;
- ✓ hunarmandchilik (ovchilik) korxonalari daromadlari, savdo sherikligidan olingan daromadlar;
- ✓ fan, adabiyot, san'at, o'qitish, tajriba orttirish, vrachlar, advokatlar, injener-arxitektorlar, jurnalistlar, tarjimonlarning mustaqil faoliyati daromadlari va boshqalar;
- ✓ ish haqi va pensiyalar;
- ✓ kapital investitsiyadan olgan daromadlar;
- ✓ ayrim ko'char mulk, royalti va ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- ✓ boshqa daromadlar (aliment, mol-mulkni sotish va b.)⁵.

Bir kalendar yil oxirida hukumatdan ortiqcha daromad solig'i to'langanligini aniqlash mumkin. Buning uchun daromad solig'i deklaratsiyasini soliq idorasiga topshirish lozim bo'ladi. Soliq deklaratsiyasi shaklini bevosita soliq idorasidan olish yoki ularni soliq idorasi veb-saytidan yuklab olish mumkin. Shuningdek, www.alster.de saytida soliq deklaratsiyasini onlayn topshirish imkoniyati mavjud. Yil yakunida ish beruvchilar tomonidan xodimga elektron daromad solig'i guvohnomasi beriladi va ushbu guvohnomada keltirilgan raqamlar asosida deklaratsiya ma'lumotlari shakllantiriladi⁶.

Ba'zi xarajatlar to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini kamaytirishi mumkin, buning uchun ularni soliq deklaratsiyasida kiritish lozim.

Chegiriladigan asosiy xarajatlarga quyidagilar kiritiladi⁷:

«kasbiy sabablarga ko'ra, shu jumladan, chet eldan ko'chib o'tish xarajatlari; ishlarni bajarish, shu jumladan ishga joylashish uchun sarflangan xarajatlar; ishga chiqish uchun ketadigan xarajatlar; shaxsiy pensiya dasturlari xarajatlari»⁸.

Fransiyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i g'oyat muhim soliq turlaridan biri hisoblanadi (davlat budjetidagi salmog'i 21,0 % dan ortiq).

Deklaratsiyalanadigan daromadlarga hisobot yili mobaynida olingan barcha mablag'lar kiritiladi. Bu tushunchaga: ish haqi, mukofotlar, nafaqa, umrbod to'lanadigan renta, mulkdan keladigan daromadlar, yerlardan keladigan daromadlar, qishloq xo'jaligidan keladigan daromadlar, sanoat yoki tijorat faoliyatidan keladigan daromadlar, tijorat ruhida bo'lmagan

³ <https://www.make-it-in-germany.com/en/jobs/taxes/income/>

⁴ https://www.ey.com/en_gl/tax-guides/worldwide-personal-tax-and-immigration-guide

⁵ <http://worldtaxes.ru/nalogi-v-evrope/nalogovaya-sistema-germanii/>

⁶ <https://www.make-it-in-germany.com/en/jobs/taxes/income/>

⁷ <https://www.make-it-in-germany.com/en/jobs/taxes/income/>

⁸ <https://www.make-it-in-germany.com/en/jobs/taxes/income/>

daromadlar, qimmatli kog'ozlar bilan operatsiya qilishdan olinadigan foyda kiradi. Mulk huquqini boshqa shaxsga topshirgan hollarda bir marta olinadigan daromadlar ham hisobga kiritiladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish murakkab tizimga ega bo'lib, alohida jismoniy shaxslar emas, balki oila daromadi soliqqa tortiladi. Soliqqa tortish - manbaning o'zida emas, balki faqat deklaratsiyada bayon qilingan jami daromad bo'yicha amalga oshiriladi⁹.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv bo'lib, soliq shkalasi 4 ta nol darajasidan yuqori stavkalariga ega. 10 777 yevrogacha bo'lgan daromad soliqqa tortilmaydi (stavka - 0%). Eng past stavka 11%, eng yuqori stavka - 45 %ni tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval Fransiya 2022-yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari¹⁰.

Yillik daromad miqdori (yevro)		Soliq stavkasi %
0 dan	10777 gacha	0
10777 dan	27448 gacha	11
27478 dan	78570 gacha	30
78570 dan	168994gacha	41
168994 dan	dan ortiq	45

Fransiya jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda ularning oilaviy holati inobatga olinib o'zgaruvchan koeffitsiyent qo'llaniladi. Bunda, yolg'iz fuqaroga soliq stavkasiga nisbatan 1 koeffitsiyent, farzandsiz er-xotinga 2 koeffitsiyent, bir nafar farzandlari bo'lgan taqdirda – 2,5 koeffitsiyent, ikki nafar farzandlari bo'lgan taqdirda – 3,0 koeffitsiyenti qo'llaniladi. Har doim keyingi farzand uchun toki oltinchisigacha (uni ham qo'shib hisoblagan holda), 10 koeffitsiyentga o'zgaradi, undan ko'prog'iga esa ikki baravar kamaytiriladi¹¹.

Ushbu masalaga alohida e'tibor qaratish lozimki, Fransiya yuqori boylikka ega shaxslar alohida daromad solig'ini to'laydi (3-jadval)

3-jadval Fransiya boylik solig'i stavkalari¹²

Daromad miqdori	Soliq stavkasi
800 000 yevrogacha	0 %
800 000 yevrodan - 1 300 000 yevrogacha	0,5 %
1 300 000 yevrodan - 2 570 000 yevrogacha	0,7 %
2 570 000 yevrodan - 5 000 000 yevrogacha	1,0 %
5 000 000 yevrodan - 10 000 000 yevrogacha	1,25 %
10 000 000 yevrodan yuqori	1,5 %

⁹ https://abroadz.com/articles/Nalogovaya_sistema_Frantsii/

¹⁰ https://www.ey.com/en_gl/tax-guides/worldwide-personal-tax-and-immigration-guide

¹¹ https://abroadz.com/articles/Nalogovaya_sistema_Frantsii/

¹² Malikova Yu.V. "Zarubejnyy opyt podoxodnogo nalogoblojeniya fizicheskix lis i vozmojnost yego implementatsii v Rossii" statya Nalogi i nalogoblojeniya, 2018 – 10. s. 55.

Fikrimizcha aholi daromadlari tengsizligini tartibga solib turish uchun Fransiya tajribasini inobatga olgan holda O'zbekistonda ham yuqori daromad manbaiga ega bo'lgan jismoniy shaxslarni alohida daromad solig'iga tortish tartibini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fransiyada soliq solinmaydigan minimal daromad miqdori yiliga 10 777 €ni tashkil etadi. Germaniyada yiliga 9 168 € dan kam ish haqi daromad solig'iga tortilmaydi. Bu miqdor solihsiz minimal deb ataladi.

Hindistonda jismoniy shaxslarning daromadlariga nisbatan deklaratsiya usulining qo'llanilishi daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor bilan bir qatorda turli xil ijtimoiy xarajatlar jami daromaddan chegirib tashlash jarayonida muhim o'rin egallaydi¹³.

Hindistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha o'ziga xos tomoni shundaki, soliq stavkalarini qo'llashda fuqaroning jinsi va davlat boshqaruvida ishlashidan kelib chiqib stavkalar belgilanadi (4-jadval).

4-jadval Hindistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari¹⁴

Daromad miqdori (rupiya)	Soliq stavkasi
0-1 800 000 (erkaklar uchun)	0
0-1 900 000 (ayollar uchun)	0
0-2 500 000 (davlat boshqaruvidagilar uchun)	0
1 800 001-5 000 000 (erkaklar uchun)	10
1 900 001-5 000 000 (ayollar uchun)	10
2 500 001-3 000 000 (davlat boshqaruvidagilar uchun)	10
5 000 001-8 000 000 (hamma uchun)	20
8 000 000 (hamma uchun)	30

Hindistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari quyidagi soliq to'lovchilar toifalariga qarab tabaqalashtiriladi¹⁵:

- «1. 60 yoshgacha bo'lgan soliq to'lovchilar;
2. 60 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan soliq to'lovchilar;
3. 80 yoshdan yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar»¹⁶.

XXR va Hindistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha Tomas Piketti (Thomas Piketty) va Nensi (Nancy)lar tadqiqotlar olib borib, tadqiqot natijalari bo'yicha "Xitoy va Hindistonda daromadlar tengsizligi va daromadlarni progressiv usulda soliqqa

¹³ <http://www.calc.ru/kurs-INR-USD.html>


¹⁴ <http://business.mapsofindia.com/india-tax/income-tax.html>

¹⁵ <http://chinalawinfo.ru>. Zakon KNR "O naloge na doxodu fizicheskix lis" Predsedatel KNR Xu Szintao. statya 6.

¹⁶ <http://chinalawinfo.ru>. Zakon KNR "O naloge na doxodu fizicheskix lis" Predsedatel KNR Xu Szintao. statya 6.

tortish 1986-2015-yillar” (Income Inequality and Progressive Income Taxation in China and India, 1986–2015) maqolasi chop qilingan¹⁷.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solish tahlil qilingan 189 ta davlatdan faqat 17 tasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun proporsional soliq stavkalari qo'llaniladi (1-rasm).



1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha proporsional stavka amal qiluvchi mamlakatlar va ularda qo'llaniladigan soliq stavkalari (%).

Jahon amaliyotidan ma'lumki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha ayrim mamlakatlarda proporsional stavka ham qo'llaniladi. Rossiyada va boshqa bir qator Sharqiy Yevropa mamlakatlarida proporsional soliq stavkasi mavjud. Ya'ni, har qanday miqdordagi daromadga bir xilda soliq stavkasi qo'llaniladi.

Umuman olganda, har qanday mamlakatda daromad solig'i tizimidagi stavkalarining o'zgarishi soliq to'lashdan bo'yin tovlash masalasining dolzarblashishiga va aholining yashirin daromadlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Soliq solishning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalarini nazarda tutadigan bo'lsak, Germaniya, Fransiya, AQSh, Hindiston va boshqa mamlakatlar singari O'zbekistonda ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydigan minimum belgilash maqsadga muvofiq. Daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydigan minimumning

¹⁷Thomas Piketty and Nancy Qian “Income Inequality and Progressive Income Taxation in China and India, 1986–2015” Source: American Economic Journal: Applied Economics, Vol. 1, No. 2 (April 2009), pp. 53-63. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/25760160>.

belgilanishi mamlakat miqyosida kam daromad oluvchi, ya'ni iqtisodiy holati past bo'lgan jismoniy shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda aholining daromadlari tengsizligini kamaytirish uchun xizmat qiladi.

Aholi daromadlari tengsizligini tartibga solib turish uchun Fransiya tajribasini inobatga olgan holda O'zbekistonda ham yuqori daromad manbaiga ega bo'lgan jismoniy shaxslarni alohida daromad solig'iga tortish tartibini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.